



**MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING  
O'YIN FAOLIYATI**

*Jalolitdinova Guloyim Oybek qizi*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti*

*Maxsus Pedagogika yo'naliishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya:Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning o'yin faoliyati rivojlanishining o'ziga xos jihatlari yoritiladi. O'yin faoliyati bolalar uchun asosiy faoliyat turi bo'lib, ularning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Aqli zaif bolalarda esa o'yin jarayonida bir qator qiyinchiliklar kuzatiladi: tasavvur va ijodkorlikning sustligi, qoidali o'ylarni tushunishda va ularga rioya qilishda muammolar, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklar.

Maqolada o'yin faoliyatining tuzilishi, syujetli-rolli o'yinlar, didaktik va harakatli o'ylarning ahamiyati hamda ular orqali aqli zaif bolalarda bilish jarayonlarini, nutqiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maxsus pedagog va psixologlarning o'yin faoliyatini tashkil etishda qo'llaydigan metod va yondashuvlari haqida fikr yuritiladi.

Maktabgacha yosh—bu bola shaxsining psixologik, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishining eng muhim davridir. Ayniqsa, aqli zaif bolalarning ruhiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Chunki ularning emotsional holati, tafakkur darajasi, ijtimoiy munosabatga kirishish ko'nikmalari oddiy bolalarnikiga nisbatan sust rivojlanadi. Shuning uchun tarbiyaviy ishlar ularning psixofiziologik imkoniyatlariga mos ravishda olib borilishi kerak. Aqli zaif bolalarda ruhiy barqarorlikni shakllantirish murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan jarayondir.



Bu bolalar ko ‘pincha o ‘z his-tuyg ‘ularini to ‘g ‘ri ifodalay olmaydilar, ijtimoiy vaziyatlarni to ‘g ‘ri tushunishda qiynaladilar, muloqotga kam kirishadilar. Shuning uchun pedagog va psixologlar bu bolalar bilan ishlaganda individual yondashuvni qo ‘llashlari zarur. Ruhiy tarbiyada bolaning hissiy holatini barqarorlashtirish asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun ularga ijobiy emotsiyalarni boshdan kechirish imkoniyatini berish, o ‘zini ifodalashga, his-tuyg ‘ularini anglashga va boshqarishga o ‘rgatish lozim. Bu jarayon turli faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, musiqiy terapiya, badiiy ijod, o ‘yinlar, ertaklar orqali tarbiya usullari keng qo ‘llaniladi. O ‘yinlar maktabgacha yoshdagи bolalar, ayniqsa aqli zaif bolalar uchun asosiy rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. O ‘yin orqali ular nafaqat o ‘z harakatlarini boshqarishni, balki boshqalar bilan muloqot qilishni, biror vaziyatni tushunishni, yechim topishni o ‘rganadilar. Ayniqsa rolli o ‘yinlar ularning ijtimoiy ko ‘nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ertak terapiyasi orqali bolalarga axloqiy tushunchalarini berish, yaxshiyomonni farqlashga o ‘rgatish mumkin. Ertak qahramonlari orqali bolalar hayotiy vaziyatlarni anglaydilar va o ‘zlarini shu vaziyatlarga qo ‘yib ko ‘radilar. Bu ularning ichki kechinmalarini yengillashtirishga yordam beradi. Ruhiy tarbiyada muhitning roli ham katta. Bola doimiy ravishda mehribonlik, quvonch va tushunishga asoslangan muhitda bo ‘lishi kerak. Tarbiyachi va ota-onalarning sabrli, muloyim, mehrli munosabati bolaning o ‘ziga bo ‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy muhit bola ruhiyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko ‘rsatishi mumkinligi uchun, bu borada doimiy nazorat va qo ‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Tarbiyachilar bolaning har bir emotsional o ‘zgarishini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Bolaning qiziqishlari, qo ‘rquv va tashvishlari, quvonchli holatlari aniqlanib, unga mos tarbiyaviy yo ‘l tanlanadi. Ruhiy tarbiya faqat ma’naviy tushunchalarni singdirish bilan cheklanmaydi, balki bolaning butun psixik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko ‘rsatadi.



Maxsus korreksion ta'limning asosiy maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan aqli zaif bolalar uchun qulay va sifatli ta'lim berish, ularning maksimal darajada moslashishi va jamiyatga to'liq integratsiyalashuvining eng yaxshi yo'llarini shakllantirishdir. Bugun asosiy e'tibor bola, uning shaxsiyati, boy ichki dunyosiga qaratilgan. Aqli zaif bolalarning rivojlanishi uchun eng katta imkoniyatlar o'yin faoliyati bilan ta'minlanadi. O'yin o'quvchining ruhiyati, harakat qobiliyatlari va hissiy holatini intensiv ravishda rivojlantirishi isbotlangan. O'yin o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish vositasi sifatida sog'lom va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar orasida keng qo'llanilgan va hozir ham qo'llanilib kelmoqda. Biroq, o'yinning aqliy zaifligi bo'lgan bolalarlar uchun alohida o'rni bor.

### Foydalilanigan adabiotlar to'plami

1. Maxsus psixalogiya; M. U. Xamidova, Z.N. Abidova, L. R. Mo'minova, Sh. M. Mamarajabo'va , D. B. Yakubjanova, Z. M. Djalolova
2. Maxsus pedagogika; M. U. Xamidova